
11 NOYABR - O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI KUNI

Xabaringiz bor, Muhtaram Prezidentimizning tashabbuslari bilan 11 noyabr O'zbekiston kasaba uyushmalari kuni etib belgilandi. Ushbu sana munosabati bilan Toshloq tumani Davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari Kengashi tomonidan faol boshlang'ich kasaba uyushma tashkiloti raislarini taqdirlash maqsadida tuman hokimligida tadbir tashkil etildi. Tadbirda tuman hokimligi tashkiliy nazorat guruh rahbari D.Ahmedov ishtirok etib, O'zbekiston kasaba uyushmalari kunining belgilanishi, eng avvalo, kasaba uyushmalari tashkilotlarini ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ularning yanada samarali faoliyat yuritishini ta'minlash, tashkilot fidoiy xodimlarini rag'batlantirishga xizmat qilishini qayd etdi. Tuman Kengashi raisi N.Dadajonova faol boshlang'ich tashkilot raislariga Davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi Viloyat Kengashining tashakkurnomasi hamda esdalik sovg'alarini topshirdi.

2022-11-12 08:56:34